ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№6(3)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

*Elektron nashr. 356 sahifa,*
*9-iyun, 2026-yil.*

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

O‘zbek bolalar folklorining etnopsixolingvistik jihatlari ........ 10
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna

The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan’s Modern School System ........ 15
Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish ........ 21
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li, Mamatqulov Davronbek Abdig‘apparovich

Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta’lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati ........ 25
Ne’matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna

Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari ........ 30
Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati ........ 33
Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog‘at

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari ........ 37
Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiova Sevaraxon Mahammadsharif qizi

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish ........ 41
Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna

Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o‘rni ........ 45
Sh. S. Kurbanova

Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar ........ 49
Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna

Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатриированными из ЗОН вооружённых конфликтов ........ 53
Юлдашев Санжар Рузимуродович

Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari ........ 57
Mamatova Karomat Ilhomjonovna

Bitiruvchi sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ... 61
Asilova Sanobar Xatamboyevna

Optika bo‘limini o‘qitishning didaktik asoslari ........ 66
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish ........ 69
D. Y. Pulatova, G‘. R.Berdiyev

Psixologik savodxonlikning o‘smirlar akademik savodxonligiga ta’siri ........ 76
Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta’limni qo‘llashning pedagogik asoslari ........ 81
Ismonov Turgunpulat To‘lqinovich

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg‘ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi ........ 84
Maripova N. X.

Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi ........ 88
Nurova Malika Abduzairovna

Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development ........ 92
Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna

Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari ........ 97
Raximova Gulxayo Alisherovna

Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati ........ 100
Shaalimov Muxtorsha Atxamovich

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari ........ 105
X. Sh. Ochilova

Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ........ 109
Xalilova Dilnoza Furkatovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari ........ 112
Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna

Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabalrning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 117
Arziyeva Visola Namozovna

Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari ........ 121
Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili ........ 125
Sharopova Durdona Azim qizi

Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari ........ 129
Tashmatova Gulzoda

Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari ........ 133
To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna

Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni ........ 137
Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna

Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili ........ 142
Vaxobova Muxtabar Nurmuhammat qizi

Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish ........ 146
Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari ........ 151
Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna

Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish ........ 156
Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish ........ 161
M. S. Achilova

Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi ........ 165
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi

PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish ........ 169
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari ........ 173
Gafurova Shoxista Erali qizi

O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari ........ 178
Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi

O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili ........ 181
Tursunova Dilbar Zafarovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech ... 184
Turumbetova Aygul Yusupbaevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi ... 189
Ummatkulova Sayyora Shovkatovna

Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish ... 191
Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov

Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi ... 195
Ermatova Robiya Bekjonali qizi

The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education ... 199
Ismailova Shaira Ferdausovna

Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners ... 204
Maqsudova Gulnoz Olimovna

Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms ... 208
Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi

Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching ... 212
Sharipova Muhabbat Erkinovna

Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili ... 216
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich

Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv ... 222
Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li

O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili ... 227
Yuldashova Dilafruz Shavkatovna

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida ... 229
Safarova Madina Azamat qizi

Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности ... 233
Аскарова Гулрух Оринбасаровна

Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века ... 239
Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб

Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана ... 242
Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari ... 245
Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich

Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini ... 249
Hayotova Diyora Hamid qizi

Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va epchillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi ... 254
Iminova Z. B., Nazarova M. A.

Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar ... 258
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna

Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari ... 265
Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li

Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli ... 271
Muminova Gulasal Baxodirovna

Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish ... 275
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi

Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish ... 280
Sadirova Kamola Giyozovna

Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash ... 284
Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna

Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi ... 287
Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan İstanbullu

O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari ... 293
Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li

Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar ... 297
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni ... 300
Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna

Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari ... 304
Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi

Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori ... 307
Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li

The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21st-Century Skills Among EFL Learners ... 314
Axmatova Munisa Orif qizi

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi ... 320
P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari ... 326
Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich

Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari ... 330
Nurkeldi Jarasbayev

Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati ... 334
Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi

Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии ... 337
Ядгарова Озода Ибрагимовна

Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari ... 342
Yursinboyev Jaxongir Mexrojidin o'g'li

Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari ... 348
Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich

Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений ... 352
Хамроев Шохбоз Султонмуродович

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

# UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARINING ASOSIY SHAKLLARI

Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich
JDPU Jismoniy madaniyat fakulteti
"Jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklari, musobaqalar hamda ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarining o'quvchilar jismoniy rivojlanishidagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishi o'quvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, sport tadbirlari, sog'lom turmush tarzi, o'quvchi yoshlar, sport to'garaklari, musobaqa, pedagogik texnologiya.

**Abstract:** This article analyzes the main forms of physical education and sports activities in general secondary schools. The study examines physical education lessons, sports clubs, competitions, and mass wellness events. The findings indicate that systematic organization of physical education significantly contributes to the formation of a healthy lifestyle among students.

**Key words:** physical education, sports activities, healthy lifestyle, students, competitions, pedagogy.

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные формы физического воспитания и спортивных мероприятий в общеобразовательных школах. Проанализированы уроки физической культуры, спортивные кружки, соревнования и массовые оздоровительные мероприятия. Отмечается, что системная организация физического воспитания способствует формированию здорового образа жизни учащихся.

**Ключевые слова:** физическое воспитание, спортивные мероприятия, здоровый образ жизни, учащиеся, соревнования.

## KIRISH

Yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va ijtimoiy faol shaxs etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan umumta'lim maktablarida sport infratuzilmasini takomillashtirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan.

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'quvchilar organizmining morfo-funksional rivojlanishiga, harakat faolligining ortishiga va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiyaning o'quvchilar kun tartibidagi tadbirlari o'quvchilarning jismoniy rivojlanishiga, sog'lig'ini mustahkamlashga va chiniqtirishga, aqliy qobiliyatlarini oshirishga hamda tartib-intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya tadbirlarini muntazam o'tkazib borish o'quvchilarni o'zini o'zi nazorat qilishga, kun tartibiga rioya qilishga hamda faolligini mustahkamlashga o'rgatadi. Jismoniy tarbiya tadbirlari maktabning ta'lim va tarbiyaviy ishlarining shakllaridan biri bo'lib, o'quv mashg'ulotlari bilan muvofiq holda tashkil etilishi kerak [3].

O'quv mashg'ulotlarigacha o'tkaziladigan ertalabki gimnastika maktabda har kuni darslar boshlanguncha o'tkaziladigan jismoniy mashqlardir. Mashg'ulotlargacha bo'ladigan gimnastika asosan tarbiyaviy va sog'lomlashtirish masalalarini hal etadi. Ochiq havoda o'tkaziladigan mashqlar o'quvchilar organizmini chiniqtirishga ham yordam beradi. Ertalabki badan tarbiya mashg'ulotlari o'quvchilarda tartib-intizomni ham tarbiyalaydi. Bu mashg'ulotlardan so'ng o'quv kunini uyushgan holda boshlash ta'minlanadi.

Ertalabki badan tarbiya mashg'ulotlarida bolalar jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'rgangan umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajaradilar. Ertalabki badan tarbiya mashg'ulotlariga shifokor taqiqlamagan o'quvchilarning barchasi qatnashadilar. Ertalabki badan tarbiya mashg'ulotlariga direktor va o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari rahbarlik qiladi. Mashg'ulotlarni jismoniy tarbiya o'qituvchilari olib boradilar. Shu bilan birga, Yoshlar ittifoqi a'zolari va faol sportchi o'quvchilar ham mashg'ulotlarni tashkil etishda ishtirok etadilar [4].

Ertalabki badan tarbiya mashg'ulotlarini ochiq havoda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Yomg'irli va qattiq sovuq kunlarda mashg'ulotlar sport zallarida yoki yopiq binolarda o'tkaziladi. Ertalabki badan tarbiya mashg'ulotlarining vazifalari:

1. O'quvchilarni jismoniy zo'riqtirmaslik.
2. Muskul tizimi va yurak faoliyatini faollashtirish.
3. To'g'ri qaddi-qomatni shakllantirish.
4. Umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish.
5. O'quv mashg'ulotlariga aqliy, ruhiy va jismoniy tayyorgarlik ko'rish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'quvchilar jismoniy tarbiyasini takomillashtirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, P.F. Lesgaft jismoniy tarbiyani shaxsning har tomonlama rivojlanishining muhim omili sifatida baholab, jismoniy mashqlar insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy va intellektual kamolotiga ham xizmat qilishini ta'kidlagan. L.P. Matveyev va V.K. Balsevichlar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sport mashg'ulotlarini tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqqanlar.

O'zbekistonlik olimlardan M. Maxkamjonov, K.K. Yarashev, A.T. Xo'jayev va Sh.X. Xo'jayevlarning ilmiy ishlarida umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini samarali tashkil etish, o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda ertalabki badan tarbiyasi, harakatli o'yinlar, sport to'garaklari va musobaqalarning o'quvchilar salomatligiga ijobiy ta'siri asoslab berilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining nazariy hamda amaliy jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur maqolada umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya tadbirlarining o'quvchilar jismoniy rivojlanishi, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish va harakat faolligini oshirishdagi ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda jismoniy tarbiya darslari bilan bir qatorda sinfdan va maktabdan tashqari sport tadbirlarining o'quvchilar salomatligiga ta'siri bir butun tizim sifatida baholanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining o'quvchilar jismoniy rivojlanishidagi ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, jismoniy tarbiya darslari, ertalabki badan tarbiyasi, sport to'garaklari hamda sinfdan tashqari sport tadbirlarining o'quvchilar sog'lig'i va harakat faolligiga ta'siri qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida jismoniy tarbiya tadbirlarining o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishdagi samaradorligi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tanaffuslar bolalarning dam olishlari va navbatdagi darsga samarali tayyorlana olishlari uchun xizmat qilishi zarur. Tanaffuslardagi o'yinlarni uyushgan holda o'tkazishda quyidagi talablar qo'yiladi: ular bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, bolalarni juda toliqtirmasligi hamda kuchli qo'zg'atmasligi kerak. Tanaffusdagi o'yinlarni qish vaqtida ham ochiq havoda o'tkazish ma'qul. Tanaffusdagi o'yinlarga jismoniy tarbiya o'qituvchilari yoki tarbiyachilar rahbarlik qilishlari kerak. Ular bolalarning to'g'ri va qiziqarli o'ynashlarini, jarohatlanmasliklarini hamda barcha o'quvchilarning jismoniy harakatlar bilan shug'ullanayotganligini nazorat qilib boradilar.

Tanaffusda harakatli o'yinlarni uyushgan holda o'tkazish o'quvchilarda tartib-intizomni mustahkamlaydi. Tanaffuslarda faol sportchi o'quvchilar va yoshlar uyushmasi a'zolari bolalar o'yinlari hamda mashg'ulotlarini boshqaradilar. O'yinlar va mashg'ulotlar dars boshlanishiga 5 minut qolganda to'xtatilib, o'quvchilar yuvinib, kiyinib darsga tayyorgarlik ko'radilar. Tanaffusdagi mashg'ulotlar o'quvchilarning yoshi, jismoniy rivojlanishi va jinsiga muvofiq takomillashib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan harakatli o'yinlar tashkil etilsa, o'rta va yuqori sinf o'quvchilari bilan sport o'yinlari hamda estafetalar o'tkazish mumkin [5].

Bu mashg'ulotlar boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'tkaziladi. Bunda dars davomida o'quvchilar o'quv mashg'ulotidan to'xtatilib, o'rindiqlar oralig'ida saflanadilar va bo'yin, gavda, bel, qo'l hamda oyoqlar uchun umumrivojlantiruvchi mashqlar bajaradilar. Bu mashg'ulotlarning maqsadi uzoq vaqt bir xil holatda gavdani tutishga o'rganmagan yosh bolalar qomatini to'g'ri shakllantirishdir. Dars davomida yosh bolalar bir xil holatda uzoq muddat qolib ketishi natijasida umurtqa pog'onasi va tayanch-harakat apparatida salbiy o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Jismoniy tarbiya daqiqalari shunday holatlarning oldini olishga qaratiladi. Jismoniy tarbiya daqiqalari bir xil holatda uzoq muddat faoliyat ko'rsatadigan kasb egalari bilan ham o'tkaziladi [6].

Maktabdagi sinfdan tashqari ishlardan biri ommaviy jismoniy madaniyat va sport ishlaridir. Sinfdan tashqari ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- maktab oldida turgan o'quv-tarbiya vazifalarini hal etishga yordam berish;
- o'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlashga, organizmni chiniqtirishga va ularning har tomonlama jismoniy rivojlanishiga ko'maklashish;
- o'quvchilarning jismoniy madaniyat darslarida olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda kengaytirish;
- maktab o'quvchilarida tashkilotchilik malakalarini tarbiyalash va rivojlantirish;
- o'quvchilarning mazmunli dam olishlarini tashkil etish;
- ularda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga ishtiyoq uyg'otish.

Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilarni keng jalb qilish uchun mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishning xilma-xil shakllaridan foydalanish lozim. Bunda ularning yoshi, sog'lig'i va jismoniy tayyorgarligi hisobga olinadi. O'quvchilar bilan amaliy ish olib borish uchun to'garaklar tuziladi. Birinchi navbatda butun yil davomida faoliyat yuritadigan umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garaklari tashkil etiladi [5].

Umumiy jismoniy tayyorgarlik va sport to'garaklariga imkon qadar ko'proq o'quvchilarni, shu jumladan, jismoniy rivojlanishda bir oz oqsayotgan bolalarni ham jalb etish lozim. Sport to'garaklari rahbarlari muayyan sport turi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uslubiyatini, bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning o'ziga xos jihatlarini yaxshi bilishlari kerak. O'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi, yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda ular maktablar hamda maxsus sport muassasalaridagi jismoniy tayyorgarlik va sport to'garaklariga jalb etiladi. Sport mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish va boshqarish natijasida bolalarning sport turlari bilan shug'ullanishi, organizmining rivojlanishi hamda sport natijalarining yaxshilanishiga erishish mumkin.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik to'garaklari o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi. To'garak mashg'ulotlari faoliyatini yil davomida quyidagicha rejalashtirish mumkin: kuzda - harakatli va sport o'yinlari, yengil atletika; qishda - qishki sport turlari, gimnastika, kurash mashg'ulotlari; bahorda - kross tayyorgarligi va sport o'yinlari; yozda - suzish mashg'ulotlari o'tkaziladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari jismoniy tarbiya dasturi asosida tashkil etiladi. Musobaqalar va sport bayramlarida o'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi nazorat qilib boriladi. To'garak qatnashchilari 18–20 kishidan iborat bo'lishi mumkin. Guruhlar yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarligi bir xil darajadagi o'quvchilardan shakllantiriladi. To'garak mashg'ulotlari haftasiga bir yoki ikki marta o'tkaziladi. Har bir mashg'ulot 60 minut atrofida bo'lishi mumkin. Jismoniy tayyorgarlik guruhlariga sardorlar tayinlanib, ular tarbiyachilarga yordam beradilar.

Maktabda sport turlari bo'yicha to'garaklar ham faoliyat ko'rsatadi. Bu to'garaklarga jismoniy tayyorgarlikka ega, shaxsiy qiziqishi va jismoniy qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilar jalb etiladi. Sport to'garaklari maktab jismoniy tarbiya dasturi asosida ish olib boradi. Sportchi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi guruh mashg'ulotlari, sport musobaqalari va bayramlarda nazorat qilib boriladi. To'garak mashg'ulotlari haftasiga 3–4 marta tashkil etilib, 60–90 minut davomida o'tkaziladi. Sport turi bo'yicha zarur jihozlar va malakali mutaxassislarning mavjudligi hamda mashg'ulot o'tkazish joylarining talabga javob berishi maktab sharoitida ham malakali sportchilar tayyorlash imkonini beradi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarning eng oddiy va ommaviy shakllaridan biri o'yinlar hamda ko'ngilochar tadbirlardir. O'yinlar o'quvchilarning kichik guruhlari bilan ham, ikki-uchta sinf o'quvchilarining katta guruhlari bilan ham uyushtiriladi. Guruh qanchalik katta bo'lsa, o'yin tashkilotchilari va o'yinboshi o'quvchilar unga shunchalik puxta tayyorlangan bo'lishlari kerak. O'yinlar bolalarning darsdan tashqari paytdagi sevimli mashg'uloti sifatida nafaqat maxsus "O'yin soatlari"da, balki tanaffuslarda, bayramlarda, sayrlarda, ekskursiyalarda va boshqa tadbirlarda ham o'tkaziladi [7].

Sport musobaqalari maktabdagi jismoniy tarbiyaga oid sinfdan tashqari ishlarning eng qiziqarli shakllaridan biridir. Ular o'quvchilarni uyda va jismoniy madaniyat jamoalaridagi doimiy jismoniy mashg'ulotlarga jalb etishga yordam beradi, o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi hamda bolalar jamoasini mustahkam-

laydi. Musobaqalar, sinfdan tashqari ishlarning boshqa turlari qatori, maktabning umumiy yillik ish rejasiga kiritiladi. O'quv yilining boshida musobaqalarni o'tkazish muddati, qoidalari va dasturlari aniq belgilab olinadi. Bu muddatlarni hisobga olgan holda musobaqalarga oldindan tayyorgarlik ko'riladi. Har bir musobaqa muayyan nizomga muvofiq o'tkaziladi. Nizomda musobaqaning maqsadi va vazifalari, vaqti va o'tkazilish joyi, qatnashuvchilari, dasturi, o'tkazilish shartlari, hisobga olish tartibi, eng yaxshi ishtirokchilar va jamoalarni mukofotlash tartibi, arizalar shakli hamda ularni taqdim etish muddati ko'rsatiladi.

Sport bayramlari tantanali kunlarga bag'ishlab o'tkazilishi mumkin. Bunda sportchilar guruhlariga birlashtirilgan o'quvchilar ishtirok etadilar. Sport bayramlari sportchilarning chiqishlari, bayramning ochilishi, bayroq ko'tarish, Davlat madhiyasi va Yoshlar madhiyasining ijro etilishi, sportchi o'quvchilarning jismoniy mashqlar va harakatlarni namoyish etishi, ommaviy tadbirlar, o'yin-kulgi, konsert dasturlari hamda g'oliblarni aniqlash va bayram yakunida uni yopish marosimidan iborat bo'ladi.

Jismoniy tarbiyaga oid maktabdan tashqari ishlarga Bolalar va o'smirlar sport maktablari, Olimpiya zaxiralari sport maktablari hamda Sport mahoratini oshirish maktablarida sport turlari bilan shug'ullanish mashg'ulotlari kiradi. Bu muassasalarda o'quvchilar sport turlari bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tadilar va muayyan sport turi bo'yicha ixtisoslashadilar. Ular sport turlari bo'yicha texnik, taktik va jismoniy tayyorgarlik, shuningdek, umumiy va maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'taydilar.

Shuningdek, jismoniy tarbiyadan maktabdan tashqari ishlarga shahar va viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda Bolalar sportini rivojlantirish tashkilotlari tashabbusi bilan tashkil etiladigan maktablararo sport musobaqalari, sport bayramlari, turli bellashuvlar va o'rtoqlik uchrashuvlari ham kiradi. Bunday musobaqalar o'quvchilar o'rtasida do'stlik va hamkorlik tuyg'ularini tarbiyalaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalarning bo'sh vaqtlarini jismoniy tarbiya bilan o'tkazish uchun ularning ixtiyoriy harakatlanishi ta'minlanadi. Bu tadbirlar oilada va mahallada tashkil etiladi. Jismoniy tarbiya tadbirlari oilada va yashash joylarida umumiy jismoniy tayyorgarlik, sport va harakatli o'yinlar, musobaqalar hamda bellashuvlar shaklida tashkil etiladi. Bu tadbirlarga ota-onalar, oiladagi kattalar, yashash joylarida esa mahalla oqsoqolining jismoniy tarbiya bo'yicha yordamchisi rahbarlik qiladi. Shuningdek, oilada va yashash joylarida ijtimoiy foydali mehnat ham jismoniy tarbiya shakllaridan biri hisoblanadi. Uy xo'jaligi va dala ishlarida, mahallani obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishda, hashar ishlarida yoshlarning faol ishtirok etishi ularni jismoniy rivojlantirish bilan birga axloqiy fazilatlar, jamoatchilik, hamkorlik, do'stlik va vatanparvarlik tuyg'ularini ham tarbiyalaydi.

Xulosa o'rnida tahlillar shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari sport tadbirlarining uzviy bog'liqligi o'quvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Ayniqsa, tizimli mashg'ulotlar yurak-qon tomir va nafas olish tizimi funksiyalarining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent: "Sharq", 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). - 24.03.2026.
3. Abdullayev A., Xoneldiyev Sh.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. - Toshkent, 2005. - 325 b.
4. Salamov R.S., Aripov Yu.Yu. Maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi uslubiyati asoslari. - Toshkent: "Moliya", 2011. - 192 b.
5. Yarashev K.D. O'z-o'zini boshqaruv tashkilotlarida jismoniy madaniyatni tashkil etish. - Toshkent, 2015. - 280 b.
6. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish: monografiya. - Toshkent: Ibn Sino, O'zDJTSU, 2005. - 245 b.
7. Xudayberdiyeva Nodira Abduyakubovna. Ommaviy sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirish. - Chirchiq, 2021. - 242 b.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №6(3)**


© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.